



O'ZBEKISTON–QOZOG'ISTON MADANIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Tursunov Asror Allanazarovich

Qarshi davlat texnika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining mustaqillik yillaridagi madaniy hamkorlik aloqalarining rivojlanish tendensiyalari tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar munosabatlarning shakllanish omillari, huquqiy asoslari hamda hamkorlikning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Xususan, madaniyat kunlari, xalqaro festivallar, san'at va ijodiy jamoalar almashinuvi, ilmiy-ma'rifiy loyihalar hamda madaniy merosni asrash bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlarning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada O'zbekiston va Qozog'iston xalqlarining tarixiy, til va madaniy yaqinligi ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqot natijasida O'zbekiston–Qozog'iston madaniy hamkorligi nafaqat ikki xalq o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini mustahkamlashi, balki Markaziy Osiyoda madaniy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qozog'iston, madaniy hamkorlik, madaniy-gumanitar aloqalar, xalqaro munosabatlar, madaniyat kunlari, ilmiy almashinuv, tarixiy-madaniy meros, Markaziy Osiyo, integratsiya.

Bugungi sharoitda biror davlatning qiyofasi nafaqat uning xalqaro maydondagi iqtisodiy siyosatiga, balki tashqi siyosatidagi madaniy-gumanitar hamkorligiga ham bog'liq. Xalqaro gumanitar hamkorlik davlatlar o'rtasidagi madaniyat, fan, axborot, sport, turizm va boshqa masalalar bo'yicha hamkorlikni o'z ichiga oladi[1]. Umuman boshqa millatning tili, urf-odatlar va madaniyatini bilish orqali boshqa milliy madaniyatlarning ijobiy in'ikosi



shakllanadi, boshqa xalqlarga tolerantlik munosabatining shakllanishi tufayli esa insonlar o'rtasida o'zaro ishonch va do'stlikni mustahkamlaydi. Shuning uchun, mintaqa davlatlari o'rtasidagi hamkorlik tizimida ham iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy aloqalar singari madaniy aloqalar ham muhim o'rinni egallaydi. Xalqaro madaniy-gumanitar hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu jarayonda manfaat deyarli butun jamiyatdan, ya'ni «yuqoridan» – davlatning o'zidan hamda «pastdan» – fuqarolik jamiyatidan kelib chiqadi[2].

Bir so'z bilan aytganda, davlatlar o'rtasidagi gumanitar hamkorlikning eng katta amaliy ahamiyati bu – davlatlarning yanada taraqqiy etishi uchun imkon beruvchi xavfsizlik masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik qilishini, xususan, terrorizm va ekstremizm kabi zamonaviy muammolarni birgalikda hal etishga qaratilgandir. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtirgan Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyat yo'nalishlaridan biri ham gumanitar hamkorlik ekanligi tasodif emas. Ushbu tashkilotning Nizomida unga a'zo davlatlar o'rtasida «fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish» kerakligi alohida ko'rsatib qo'yilgan[3].

Madaniy aloqalar mamlakatning madaniy hayotida muhim omillardan biri bo'lib, ijodiy boyish va progressiv madaniy tendensiyalarning taraqqiy etishiga, har tomonlama aloqalar va madaniy qadriyatlar almashinuvi xalqaro munosabatlar normalaridandir. Katta ko'lamdagi hujjatlar va adabiyotlar asosida O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalarining rivojlanishidagi asosiy vositalari dinamika va tendensiyalari yoritildi. Ular quyidagilar: 1) davlatlarning Madaniyat kunlari; 2) davlatlarning teatr va musiqa jamoalari gastrollari; 3) davlatlarning san'at arboblari va artistlari ishtirokidagi turli xalqaro festivallar, konkurslar va ko'rgazmalar; 4) madaniyat sohasidagi tajribalar, ma'lumotlar va mutaxassislar almashinuvi kabilardir.



O'zbekiston o'z mustaqilligining ilk yillaridan boshlab Markaziy Osiyodagi qo'shni mamlakatlar bilan millatlararo munosabatlar masalalariga jiddiy e'tibor qaratdi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Yangi tarixning murakkab davrlarida mintaqada tinchlik va barqarorlik saqlanib qolindi, ayrim nuqtalarda vujudga kelgan ziddiyatlar yirik davlatlararo mojaroga aylanib ketishiga yo'l qo'yilmadi»[4]. Buning yorqin misoli sifatida 1990-1991 yillardagi tahlikali davrlarda respublika hukumatining olib borgan oqilona siyosatni misol qilish mumkin.

Markaziy Osiyo hamkorligining poydevori 1993 yilda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Iqtisodiy Ittifoq tuzish to'g'risidagi shartnomani imzolaganida qo'yilgan hamda bu shartnoma tez orada «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati» yoki «Markaziy Osiyo ittifoqi»ga aylandi[5]. Biroq, bu ittifoq kutilgan natijalarni bermaganidan keyin, Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro munosabatlarning ikki tomonlama formatiga o'tdilar.

1991 yil O'zbekiston va Qozog'iston mustaqillikka erishganidan keyin ikki tomonlama madaniy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik, o'zaro ishonch va hamkorlikning muhim omili bo'ldi. Bejizga O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday demagan: «Agar qozoq va o'zbek millati bir bo'lar ekan, tariximiz, taqdirimiz va kelajagimizni yillab hamkor – hamqadam bo'lib yashar ekan, bu birlikni, bu do'stlik qo'rg'onini yenga oladigan kuch dunyoda bo'lmaydi»[6].

Mintaqaning ikki yirik davlatining azaldan shakllangan qardoshlik rishtalari, o'tmishi, tili, dini va madaniy-ma'naviy merosining umumiyligi o'zaro madaniy hamkorlikning tabiiy asosi hisoblanadi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari ming yilliklarga borib taqalib, Turon – Turkiston va Dashti Qipchoq o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy almashinuvlar asosida shakllangan[7].

1992 yil 25 fevralda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari qurultoyi munosabati bilan O'zbekistonning



birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'z tabrigida: «O'yaymanki, sizning bu anjumaningiz nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining diqqat markazida turibdi»[8].

Respublikalar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning asosiy tamoyillari 1992 yil 24-30 iyunda imzolangan Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi Do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomada bayon etilgan. Ushbu shartnomada davlat suvereniteti va mustaqilligini o'zaro tan olish, tenglik va ichki ishlarga aralashmaslik eng muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ishlarda davlatlar suveren, teng huquqli va do'stona davlatlar sifatida harakat qiladilar. Ikki tomonlama shartnomadagi asosiy omil — bu ushbu Shartnomada mustahkamlanganidek, hududiy yaxlitlik va mavjud chegaralarning daxlsizligini tan olish va hurmat qilish, shuningdek, har qanday tajovuzlardan voz kechishdir[9].

1991–2016 yillar davrida madaniy aloqalarning huquqiy-normativ bazasini yaratish, san'at va adabiyot sohasidagi o'zaro tajriba almashinuvi, festivallar va madaniy kunlarni tashkil etish orqali rivojlandi[10]. Bu davrda ikki davlat rahbarlari – O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov va Qozog'istonning birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning uchrashuvlari, MDH va SHHT doirasidagi ko'p tomonlama mexanizmlar ham madaniy hamkorlikning asosiy drayveri bo'ldi.

Madaniyat sohasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, madaniy boyliklarni yaratish va almashish, shuningdek, tarixiy yodgorliklarni tiklashdan iborat[11]. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va texnik vositalarni joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, diplom va ilmiy darajalarni o'zaro tan olish, sport va turizmni rivojlantirish, kutubxona va arxivlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish kabi yo'nalishlar ham qamrab olinadi. Shuningdek, ilmiy anjumanlar tashkil etish, mutaxassislar almashinuvi, stajirovkalar o'tkazish, chet tillarni



o'rganishni rivojlantirish va madaniy merosni asrashga qaratilgan tadbirlar ham muhim o'rin tutadi[12].

Mustaqillikning ilk yillaridanoq, mamlakatimizning milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda xalqaro hamjamiyat subyektlari bilan, shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalarni o'rnatishga kirishildi. O'zbekistonning dunyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorligini yanada rivojlantirish borasida qabul qilgan normativ hujjatlarning ahamiyatini ta'kidlash o'rinli[13].

Qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash har bir mamlakatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, bir qancha omillar bilan belgilanadi. Masalan, muammolarning o'xshashligi, xalqaro jamg'armalar darajasida muammolarni ko'tarish va yagona pozitsiyani shakllantirish ularni hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, terrorizm, giyohvand moddalar savdosi va boshqa tahdidlarga qarshi kurash mamlakatlarning imkoniyatlariga asoslangan holda safarbarlikni talab qiladi. Bundan tashqari, bu mamlakatlar iqtisodiyoti bir-birini to'ldiradi; qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdoda transport xarajatlarining pastligi tovarlarning raqobatbardoshligini oshiradi va biznes samaradorligini oshiradi.

Madaniy aloqalarning rivojlanishi ikki xalq o'rtasidagi tarixiy yaqinlikka, umumiy turkiy sivilizatsiyaga tayanib, mintaqaviy integratsiya jarayonlariga o'z hissasini qo'shdi. Bu davrda imzolangan shartnomalar, o'tkazilgan ilmiy anjumanlar, san'at festivallari va diasporalar faoliyati madaniy-gumanitar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Толковый энциклопедический словарь. – СПб.: Норид, 2006. – С. 485
2. Бабаходжаева Л.М. Основные тенденции и направления международного культурно-гуманитарного сотрудничества Республики



Ўзбекистан (период независимости). Автореферат дисс. док. ист. наук. – Ташкент, 2011. – С.89.

3. Хартия Шанхайской Организации Сотрудничества. Принята 7 июня 2002г. в Санкт-Петербурге http://rus.sectesco.org/documents/Murojaat_vaqti: 22.11.2019.

4. Mirziyoyev Sh. Oliy majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi. 23 dekabr. 2018 y.

5. Централноазиатское экономическое сообщество (САЭС) // Министерство иностранных дел Российской Федерации http://www.mid.ru/central-noaziatskoe-soobsestvo-cas/-/asset_publisher/0vP3hQoCPRg5/content/id/585382.

6. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ваатан қолсин. – Т., 1994. – 235-бет.

7. Tursunov A.A. O'zbekiston va Qozog'iston davlatlarining madaniy aloqalari haqida ba'zi ma'lumotlar Qobiljon Mustafoyevning xotirasiga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy anjumani ma'ruzalari to'plami. 2024 yil 18 yanvar. B.265

8. «Халқ сўзи» газетаси. 1992 йил 26 февраль, 41-сон

9. Кожамжарова Ж.Ж. Сотрудничество Казахстана и Узбекистана в современных условиях: исторический аспект (1991-2008 гг.). Автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.и.н. Алматы, 2010. С. 13.

10. Tursunov A.A Qozog'istonning O'zbekiston davlati bilan xalqaro festivallari madaniy jarayonlarining borishi to'g'risida //«Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida O'zbekiston tarixi va madaniyati» mavzusida II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2023 yil 22-23 sentabr, B. 268-272.

11. Tursunov A.A O'zbekiston va Markaziy Osiyo madaniy aloqalarining yangi bosqichi. Qobiljon Mustafoyevning xotirasiga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy anjumani ma'ruzalari to'plami. 2024 yil 18 yanvar.B.278-286.



12. Головина Г.В., Савина И.А. Международное культурное сотрудничество: аспекты социально-культурного и правового регулирования // Вестник АГУ. – 2014. – Вып. 4 (148). – С. 164.

13. O'zbekiston o'z mustaqilligining qisqa davri ichida 600 dan ortiq ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnoma va bitimlar tuzdi, madaniy-gumanitar hamkorlik to'g'risidagi eng muhim xalqaro konvensiyalar, shartnomalar va bitimlarga qo'shildi; 1993 yili Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim; Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish bankini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida Bitim 1994; 1994 yil 10 yanvarda Qozog'iston Birinchi Prezidenti N.Nazarboyev va O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risida shartnoma; MDH iqtisodiy ittifoqi tuzish to'g'risidagi shartnoma; Maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sayyohlik va sport sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida hukumatlararo bitim; Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish bankini ta'sis etish to'g'risida Bitim; Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalarining Oliy davlatlararo Kengashini tuzish to'g'risida Bitim; Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi davlat rahbarlarining mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi Bayonoti 1998; Qirg'iziston bilan chegara hududlarida ishonch choralari bo'yicha Bitim (2017 yil); 2009 yilning 3 oktabr kuni imzolangan "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan Bitimi.